

## O'QITUVCHINING NOTIQLIK QOBILIYATINI O'STIRISHDA BADIY ASARLARNING O'RNI

**Xudayberdiyeva Nigora Abdujabborovna**

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani 24- umumta'lim

maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada badiiy asarlarning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati, bu bilan nutqni o'stirish va notiqlik san'atini rivojlantirish kabi tushunchalar yoritib berilgan. Badiiy asarlar orqali nutqni ravon tarzda shakllantirish haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Badiiy asarlar, adabiyot, inson ruhiyati, o'qituvchi, notiqlik san'ati, nutq madaniyati, nutqni rivojlantirish

**Kirish.** Bilamizki, badiiy adabiyot inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi, uning tuyg'ular olamini qaror toptiruvchi hamda komillikka yetaklovchi sehrli bir tilsimdir. Badiiy asarlar inson ongini tarbiyalashda, nutq madaniyatini mukammal tarzda shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarlar cheksiz his tuyg'ularga , g'oyalarga , turli xil qarashlarga boy manba hisoblanib, kishi undan ma'naviy ozuqa oladi. Asarda turli zamonlardagi kishilarning o'y-xayollari, fikrlari, hayot tarzi, xarakter-xususiyatlari o'z aksini topadi. Kitobxon esa asarni o'qish chog'ida bevosita asardagi barcha xususiyatlarni o'ziga singdirib boradi.

Adabiyot olamida inson ruhiyatiga, uning nutqiy rivojlanishini yuksaltiradigan asarlar, ijod mahsullari bisyor, albatta. Said Ahmadning "Ufq", "Jimjitlik", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi, Abdulla Qahhorning jamiki hikoyalari, jumladan, Ahmad Yugnakiyning "Hibbat-ul haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i, shuningdek, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, Zulfiya, Saida Zunnunova, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi ijodkorlarning asarlari, ijod namunalari tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday asarlarni sanasak , adog'i yo'q. Bularning barchasi ezgulikka, hayot haqiqatlarini anglashga undaydi.

**Asosiy qism:** Badiiy asarlarni, ayniqsa, nutqni shakllantirishda va rivojlantirishda ahamiyati katta hisoblanadi. Dars jarayonida puxta , lo'nda, jozibali va ravon nutq tuza olish malakasi barcha fan o'qituvchilari uchun zaruriy fazilat sanaladi. O'qituvchi go'zal va boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib , bermoqchi bo'lgan bilimni bola shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Nutq haqida to'xtaladigan bo'lsak, nutq- bu til deb ataluvchi, ijtimoiy- individual noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari, imkoniyatlarining obektiv borliq, tafakkur hamda vaziyat bilan bog'liq doimiy munosabatda namoyon bo'lishidir.

U keng ma'noda so'zlardan , birikmalardan, gaplardan tashkil topadi.

Insonning nutq faoliyati uch ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Bular- so'zlash, mutolaa qilish va eshitish. Notiqlik san'ati esa og'zaki va yozma nutqni tinglovchilarga jonli, ifodali va ta'sirli yetkazish malakasini egallashdir. Notiqlik san'ati murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malak va tajriba talab etadi. Notiqlik san'atining ijtimoiy mavqeyi shu qadar kengki, barcha sohalarda talab etiladi. Notiqlik san'atini turli sohalardagi o'rniga ko'ra quyidagi turlarga ajratish o'rinlidir:

1. Siyosiy notiqlik;
2. Akademik notiqlik;
3. Sud notiqligi;
4. Ijtimoiy-maishiy notiqlik;
5. Diniy notiqlik.

Notiqlik san'ati uzoq tarixga borib taqaladi. Notiqlik san'ati haqidagi ilk ma'lumotlarni faqatgina Gomerining "Iliada" va "Odesseya" nomli dostonlaridan olish mumkin. O'sha davrlarda notiqlik – voizlik, notiq esa voiz deb atalgan, nutq va'z deb atalgan. Shuningdek, Alisher Navoiy notiqlik san'ati haqida "Mahbub ul- qulub " asarida to'xtalib o'tgan.

**Xulosa.** Xulosa qilish mumkinki, badiiy asarlarning o'rni yuqorida aytganimizdek, barcha sohalarda muhim. Ayniqsa, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarga nutqini ravon

ifodalab berishi uchun badiiy asarlar muhim rol o'ynaydi. Badiiy asar matnida ilgari surilgan g'oya, tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish va nutq o'stirishda uning til xususiyatlarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tilning nuqdagi qurilishi bu so'z , tasviriy ifodalar sanaladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xolida G'ulomova. Badiiy asar matni tahlili orqali o'quvchilarning nutqini o'stirish. Toshkent .2020
2. Xaliqulova Go'zal. Notiqlik san'ati va badiiy so'z san'atining mustaqil turi sifatida. Madaniyat va san'at jurnali. 2023
3. Bekmirzayev. N. notiqlik san'ati asoslari. Toshkent.2008